

HUDUDIY KORXONALARNI QARZ MABLAG'LARI ORQALI MOLIYALASHTIRIB RIVOJLANTIRISH

Shomirzaev Abdulxakim Rustam o'g'li

Alfraganus University magistranti

Nazarov Nazirjon Narzilloyevich

Alfraganus University dotsenti

Annotation. This study examines the opportunities and challenges associated with developing regional enterprises through debt financing. It analyzes how access to borrowed capital influences business expansion, investment activity, and overall regional economic growth. The research highlights the role of financial institutions in providing credit resources, evaluates the effectiveness of debt instruments, and identifies key factors that ensure sustainable development of enterprises. Practical recommendations are proposed to enhance the financial stability and competitiveness of regional companies by improving their debt management and optimizing financing strategies.

Keywords: debt financing, regional enterprises, borrowed capital, economic development, credit resources, investment activity, financial sustainability.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot hududiy korxonalarni qarz kapitali hisobiga moliyalashtirish orqali rivojlantirish imkoniyatlari va mavjud muammolarni tahlil qiladi. Qarz mablag'laridan foydalanish biznes faoliyatini kengaytirish, investitsion faollikni oshirish hamda hududlar iqtisodiy o'sishiga ta'sir ko'rsatishi o'rganiladi. Shuningdek, moliyaviy institutlarning kredit resurslari taqdim etishdagi o'rni, qarz instrumentlarining samaradorligi va korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi omillar yoritiladi. Tadqiqot natijasida korxonalarining moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiluvchi qarz boshqaruvi va moliyalashtirish strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qarz mablag'lari, moliyalashtirish, hududiy korxonalar, iqtisodiy rivojlanish, kredit resurslari, investitsion faollik, moliyaviy barqarorlik.

Аннотация. В данной работе рассматриваются возможности и проблемы развития региональных предприятий за счет долгового финансирования. Анализируется влияние привлеченного капитала на расширение бизнеса, инвестиционную активность и экономический рост региона. Особое внимание уделяется роли финансовых учреждений в обеспечении кредитными ресурсами, эффективности долговых инструментов и ключевым факторам устойчивого развития предприятий. Предложены практические рекомендации по повышению финансовой устойчивости и конкурентоспособности региональных компаний путем совершенствования управления заемными средствами и оптимизации стратегий финансирования.

Ключевые слова: долговое финансирование, региональные предприятия, заемный капитал, экономическое развитие, кредитные ресурсы,

Kirish. Korxonaning o'z moliyaviy-xo'jalik faoliyatini qarz mablag'larini jalb qilmagan holda samarali davom ettirishi bozor iqtisodiyoti sharoitida murakkab masala hisoblanadi. Qarz mablag'laridan foydalanish moliyaviy-xo'jalik faoliyatini mos ravishda kengaytirish, xususiy kapitaldan yanada samarali foydalanishni ta'minlash, turli xil maqsadli moliyaviy fondlarni shakllantirish jarayonini tezlashtirish, nihoyat korxonaning bozor qiymatini oshirish imkonini beradi. O'z navbatida davlat tomonidan ma'lum bir loyihalarni amalga oshirish faqat davlat byudjeti mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi imkonsiz. Shu boisdan davlat tomonidan ham ichki va tashqi qarzlarga murojaat qilinishi mumkin. Korxonalarda foydalaniladigan qarz kapitali jami moliyaviy majburiyatlar miqdori bilan tavsiflanadi. Bunday majburiyatlarni quyidagicha tabaqalashtirish mumkin.

Uzoq muddatli qarz kapitaliga korxonalarda amal qiluvchi foydalanish muddati bir yildan ortiq bo'lgan qarz kapitalining barcha shakllarini kiritish mumkin. Uzoq muddatli bank kreditlari va boshqa uzoq muddatli qarz mablag'lari (moliyaviy lizing, soliq krediti bo'yicha qarzдорlik, muomalaga chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha qarzдорlik, moliyaviy yordam bo'yicha qarzдорlik, qaytarish sharti bilan berilgan boshqa mablag'lar) uzoq muddatli moliyaviy majburiyatlarning asosiy shakllari hisoblanadi. Qisqa muddatli qarz kapitaliga bir yilgacha bo'lgan muddatda foydalanish uchun jalb qilingan qarz kapitalining barcha shakllarini kiritish mumkin. Bunday majburiyatlarning asosiy shakllari sifatida qisqa muddatli bank kreditlari va boshqa qisqa muddatli qarz mablag'lari (muomalaga chiqarilgan qisqa muddatli obligatsiyalar, bir yilgacha taqdim etilgan soliq kreditlari, berilgan veksellar, olingan avanslar)ni keltirish mumkin.

O'z moliyaviy majburiyatlarini qoplash chora-tadbirlari bo'yicha korxonani rivojlantirish jarayonida qo'shimcha qarz mablag'larini jalb qilishga talab yuzaga keladi. Bunda korxona tomonidan jalb qilinadigan qarz mablag'larini quyidagicha tasniflash mumkin: jalb qilish manbalari bo'yicha: mamlakat ichkarisidan va tashqi manbalardan yoki moliya institutlaridan, real sektor korxonalaridan, jismoniy shaxslardan; jalb qilish muddati bo'yicha: qisqa muddatli (bir yilgacha) va uzoq muddatli (bir yildan ortiq); jalb qilish shakli bo'yicha: pul shaklida (moliyaviy kredit), asosiy vosita (uskuna) shaklida (moliyaviy lizing), tovar shaklida (tijorat krediti) va boshqa moddiy va nomoddiy shakllarda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Hududiy korxonalarni qarz mablag'lari orqali moliyalashtirish masalasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biridir. J.Brealey va M.Mayers (2019) korxonalarning kapital tuzilmasida qarzning o'rni va uning rentabellik ko'rsatkichlariga ta'sirini batafsil tahlil qilib, moliyaviy leverage samaradorligini asoslab bergan. R.C.Merton (2020) qarz instrumentlarining iqtisodiy risklarga ta'sirini, ularning barqaror rivojlanishga qo'shadigan hissasini yoritadi.

Mahalliy olimlardan S.G'ulomov (2021), M.Sharifxo'jayev (2020) va I.Qodirov (2022)lar korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishda kredit

resurslarining ahamiyatini, bank tizimi va real sektor o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tadqiq qilgan. Ularning fikricha, qarz mablag'laridan oqilona foydalanish investitsion salohiyatni kuchaytiradi, hududlar iqtisodiy faolligini oshiradi. Xorijiy adabiyotlarda (OECD, World Bank, IMF hisobotlari) esa kichik va o'rta biznesni kreditlashning hududiy iqtisodiyotga ta'siri, qarzning optimal darajasi va kredit infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amaliy modellari keltiriladi. Bu manbalarda ayniqsa kreditga kirish imkoniyatining oshishi hududlarda yangi ish o'rinlarini yaratishi, korxonalarining innovatsion faoliyatini kuchaytirishi ta'kidlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Nazariy tahlil usuli bo'yicha mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, bank hisobotlari, rasmiy statistik ma'lumotlar o'rganildi. Taqqoslash usulida hudud bizneslarini kreditlash ko'rsatkichlari turli yillar kesimida solishtirilib, moliyaviy resurslar ta'siri aniqlashtirildi. Iqtisodiy-statistik tahlilda korxonalarining kreditdan foydalanish dinamikasi, investitsion faollik, ishlab chiqarish hajmi o'zgarishi statistik ma'lumotlar asosida baholandi. Grafik va jadval tahlilida natijalar vizual tasvirlar orqali ko'rsatilib, qarz mablag'lariga bog'liq o'zgarishlar izohlandi. Ekspert baholash usuli bo'yicha hududiy korxonalar mutaxassislari bilan o'tkazilgan suhbatlar orqali moliyalashtirishdagi muammolar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Qarz mablag'lari hududiy korxonalar rivojlanishining asosiy manbalaridan biridir. Kredit resurslari ortgan hududlarda ishlab chiqarish quvvatlari kengaygan, yangi texnologiyalar joriy etilgan, natijada qo'shimcha ish o'rinlari yaratilgan. Korxonalarining investitsion faolligi qarz kapitali hajmi bilan bevosita bog'liq. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, qarz olgan korxonalar investitsiyalarni kamida 15–25 foizga oshirgan. Kredit infratuzilmasining rivojlanish darajasi hududlar kesimida farq qilmoqda. Ba'zi hududlarda kreditlash shartlari yengil bo'lsa, ayrimlarida kafolatlar talabi yuqoriligi sabab korxonalar kredit olishda qiynalmoqda. Qarz yukining ortishi moliyaviy tavakkalchilikni oshiradi. Ayniqsa, kichik korxonalarda kredit foiz stavkalari yuqoriligi sabab qarzning qaytarilishiga bog'liq risklar kuchaygan. Korxonalar uchun davlat dasturlari muhim moliyaviy manba bo'lmoqda. Imtiyozli kreditlar hududiy iqtisodiyotning tiklanishi va yangi loyihalar amalga oshirilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Iqtisodiy munosabatlarda har qanday qarz mablag'i shak-shubhasiz majburiyat va olingan qarz mablag'ini belgilangan muddatda qaytarish, shuningdek foydalanganlik uchun foiz ko'rinishidagi mukofot summasini mablag' egasiga o'tkazib berish asosida taqdim etiladi. Qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirish manbalari va shakllari yetarli darajada xilma-xillikka ega. Qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirish quyidagi muhim prinsiplarga asoslanadi.

Qaytarishlilik prinsipi qarzdor tomonidan olingan summa (asosiy qarz summasi)ni belgilangan muddatda to'liq qoplash zaruriyatini o'zida aks ettiradi. Amaliyotda qarzdorning bu talabni bajarishi uning moliyaviy natijalari barqarorligiga, shuningdek qarzning ta'minlanish sifatiga bog'liq hisoblanadi. Shuning uchun ham bank kreditlarini taqdim etishda ta'minlanganlik prinsipiga ham

e'tibor talab etiladi. To'lovlilik prinsipi taqdim etilgan mablag'lardan foydalanish huquqi uchun qarz oluvchining kreditorga foiz to'lash majburiyatini o'zida aks ettiradi. Qarz mablag'lari bo'yicha foiz stavkasi pul mablag'larining miqdori va foydalanish muddatiga, risklilik va likvidlilik darajasiga va kreditor tomonidan qo'yiladigan boshqa talablarga bog'liq holda belgilanadi. Muddatlilik prinsipi berilgan qarz mablag'ining aniq vaqt oralig'idan so'ng kreditorga qaytarilishi bilan tavsiflanadi.

Yuqorida keltirilgan prinsiplarga qo'shimcha tarzda ba'zi qarz mablag'lari shakllari beriladigan mablag' va unga mos foiz to'lovlarining ta'minlanganligi asosida ham ko'rib chiqiladi. Bunga bank kreditlarini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Umumiy holda qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirish jalb qilish shaklidan qat'iy nazar quyidagi afzalliklarga ega (1-rasm). Qat'iy belgilangan qiymat va muddat pul oqimlarini rejalashtirishda aniqlikni ta'minlashga xizmat qiladi, foydalanganlik uchun to'lov miqdori firma daromadiga bog'liq emas, ya'ni mulkdorlar buyrug'i asosida daromadning o'sish holatlarida qo'shimcha daromadni saqlash imkonini beradi, moliyaviy richagdan foydalanish hisobiga xususiy kapital rentabelligini oshirish imkoniyatini yaratadi va boshqalar shular jumlasidandir.

Qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirishning umumiy kamchiliklari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- belgilangan foiz miqdori va asosiy qarz summasini qoplashning majburiyligi moliyaviy natijalarga bog'liq emas;
- moliyaviy riskning ortishi;
- firma moliyaviy siyosatiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan chegaralovchi shartlarning yuzaga kelishi (masalan, dividend to'lash, boshqa qarz mablag'lari jalb qilish, qo'shilish va ajralib chiqish, aktivlarni garov sifatida rasmiylashtirish va boshqalarning cheklanishi);
- ta'minlanganlik bo'yicha talablarning qo'yilishi;
- jalb qilish miqdori va foydalanish muddati bo'yicha cheklovlar.
- Qo'shimcha sifatida ta'kidlash lozimki, qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirishning har bir shakli, xususan, obligatsiyalar orqali moliyalashtirish ham o'zining alohida afzalliklari va kamchiliklariga ega.

Korxonalar faoliyatini qarz kapitali hisobiga moliyalashtirishda uning har bir shaklining xususiyatlarini alohida o'rganish zarur. Mazkur jarayonda kapital bahosiga alohida e'tibor qaratish lozim. Qarz kapitali hisobiga moliyalashtirish shakllaridan qay birining kapital bahosi past bo'lsa, mazkur moliyalashtirish shakli korxona uchun qulay hisoblanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, hududiy korxonalarni qarz mablag'lari orqali moliyalashtirish ularning iqtisodiy faolligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va investitsion salohiyatni kengaytirish uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, kredit siyosatini takomillashtirish, foiz stavkalarini pasaytirish, kafolat mexanizmlarini soddalashtirish zarur. Moliyalashtirish strategiyalarini to'g'ri tanlash, qarzlarining optimal darajasini

belgilash va samarali boshqarish korxonalar barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Shuningdek, banklar va korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Elmirzayev S. E. Korporativ moliya //Darslik.–T.:“Iqtisod-Moliya. – 2023. – T. 364.
2. Brealey R., Myers S., Allen F. Principles of Corporate Finance. – McGraw-Hill, 2024.
3. Merton R.C. Financial Economics. – MIT Press, 2023.
4. G'ulomov S.S. Korxonalar moliyasini boshqarish. – TDIU, 2021.
5. Sharifxo'jayev M. Bank kreditlari va investitsiyalar boshqaruvi. – Toshkent, 2020.
6. Qodirov I. Hududiy iqtisodiyotning moliyaviy mexanizmlari. – 2022.
7. World Bank. Small and Medium Enterprise Finance Report. – 2023.
8. OECD. Financing SMEs and Entrepreneurs. – OECD Publishing, 2022.
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari (yillik).
10. IMF. Financial Stability Reports. – 2023.
11. Statistika agentligi ma'lumotlari (2020–2024-yillar).